KELIŞILDI	TASDIQLANGAN
«CLICK» AJ boşqaruv tizimi böyiça rahbariyat vakili	«CLICK» AJ Boş direktori

QOIDALAR

«CLICK» elektron pullar tizimining faoliyat yuritişi böyiça

CM-CTO-1700-02-26

Versiya 02

Toşkent 2026

Sözboşi

1. Işlab çiqilgan va kiritilgan	Yuridik/komplayens Departamenti tomonidan
2. Tasdiqlangan	«CLICK» AJ Boş direktori tomonidan
3. Amalga kiritilgan	2026-yil «08»-oktyabrdagi 223-son Buyruq
4. Quyidagi tahrir örniga kiritilgan	CM-CTO-1700-02-26 Versiya 01 27.08.2026-yildagi 197-son Buyruq
5. Amal qiliş muddati	Muddatsiz. Uşbu qoidalar bekor qilinguniga qadar yoki ularga özgartirişlar kiritilib, yangi tahrirda naşr etilguniga qadar amal qiladi
6. Hujjatni qayta körib çiqiş davriyligi	Kamida – 1 yil; köpi bilan – 2 yil
7. Hujjat maqomi	Içki foydalaniş uçun
8. Hujjatni boşqariş uçun mas'uliyat	Yuridik/komplayens Departamenti direktori
9. Maxfiylik talablari	Uşbu hujjat Kompaniyaning mulki hisoblanadi va maxfiy xususiyatga ega. Uşbu hujjat mazmuni Kompaniya Rahbariyati bilan oldindan kelişilmagan holda Kompaniya xodimlari bölmagan uçinçi şaxslarga berilişi mumkin emas

Hujjat «CLICK» AJ mulki hisoblanadi.
Hujjatni ruxsatsiz köpaytiriş va tarqatiş taqiqlanadi hamda ÖzR qonunçiligiga muvofiq ta'qib qilinadi.

Mundarija

1. Umumiy qoidalar 5
1.1. Maqsadi va qöllaniliş sohasi 5
2. Normativ havolalar 5
2.1. Taşqi normativ hujjatlar 5
3. Ta'riflar va qisqartmalar 6
3.1. Ta'riflar 6
3.2. Qisqartmalar 7
4. Javobgarlik 7
5. «CLICK» elektron pullar tizimining faoliyat yuritiş qoidalari 7
5.1. Tölov taşkiloti tomonidan körsatiladigan tölov xizmatlarining tavsifi 7
5.2. Tölov taşkiloti mijozlariga tölov xizmatlarini körsatiş tartibi va muddatlari 8
5.3. Tölov taşkiloti tomonidan körsatiladigan tölov xizmatlarini texnologik jihatdan ta'minlovçi uçinçi şaxslar bilan özaro hamkorlik tartibi 9
5.4. Axborot xavfsizligi çoralariga rioya etiş tartibi 9
5.5. Risklarni boşqariş usullari 9
5.6. Iştirokçilarning huquq va majburiyatlari 9
5.7. «CLICK» elektron pullar tizimiga qöşiliş tartibi 16
5.8. Tölov xizmatlari foydalanuvçilarining elektron hamyonlarini Tizimda röyxatdan ötkaziş va oçiş. Jismoniy şaxslar tomonidan Tizimda operatsiyalar ötkazişga çeklovlar 16
5.9. Tölov xizmatlari foydalanuvçilari va Merchantlarning elektron hamyonlarini röyxatdan ötkaziş, oçiş va yopiş 17
5.10. Elektron pullar çiqariş 18
5.11. Elektron pullarni Tizim iştirokçilari – jismoniy şaxslarga sotiş 18
5.12. Tizim iştirokçisi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisini identifikatsiya qiliş 19
5.13. EPdan foydalangan holda tölovlar va boşqa operatsiyalarni amalga oşiriş 19
5.14. Elektron pullarni Tizimda qoplaş 19
5.15. Elektron pullar hisobi va Emitentning tartibga soluvçi organlar oldidagi hisoboti 19
5.16. Operatorning Merchantlar bilan özaro hamkorligi 19
5.17. Nizolarni hal etiş tartibi 20
5.18. Tizimning uzluksiz işlaşi va xavfsizligini ta'minlaş 21
5.19. Maxfiylik 22
5.20. Elektron pullar Egasini autentifikatsiya qiliş 22
5.21. Uşbu Qoidalarga özgartirişlar kiritiş tartibi 22
5.22. Elektron hamyonlarni bloklaş tartibi 23
5.23. Elektron xabarlar almaşinuvi 23

Hujjat «CLICK» AJ mulki hisoblanadi.
Hujjatni ruxsatsiz köpaytiriş va tarqatiş taqiqlanadi hamda ÖzR qonunçiligiga muvofiq ta'qib qilinadi.

5.24. Elektron hamyonni yopiş tartibi.....23
5.25. Qöşimça şartlar 24

Hujjat «CLICK» AJ mulki hisoblanadi.
Hujjatni ruxsatsiz köpaytiriş va tarqatiş taqiqlanadi hamda ÖzR qonunçiligiga muvofiq ta’qib qilinadi.

1. Umumiy qoidalar

1.1. Maqsadi va qöllaniliş sohasi

1.1.1. Uşbu «CLICK» elektron pullar tizimining faoliyat yuritiş qoidalari (keyingi örinlarda – Qoidalar) ISO 9001:2015 metodologiyasi asosida «CLICK» elektron pullari bilan operatsiyalarni amalga oşirişni ta'minlovçi yagona şart va tartiblarni belgilaş maqsadida işlab çiqilgan hamda quyidagi tartibga nisbatan umumiy talablarni belgilaydi:

– elektron pullarni çiqariş va sotişni amalga oşiriş;
– çiqarilgan elektron pullarni hisobga oliş va qoplaşni amalga oşiriş;
– «CLICK» elektron pullar tizimining boşqa Iştirokçilari bilan özaro hamkorlik qiliş;
– elektron pullardan foydalangan holda tölovlar va/yoki boşqa operatsiyalarni amalga oşiriş hamda elektron pullardan foydalanişda yuzaga keladigan nizolarni hal etiş;
– elektron pullar tizimining faoliyat yuritişi.

1.1.2. Qoidalar Özbekiston Respublikasining «Tölovlar va tölov tizimlari töğrisida»gi Qonuni hamda «Özbekiston Respublikasi hududida elektron pullarning çiqarilişi va muomalada bölişi qoidalari»ga muvofiq işlab çiqilgan.

1.1.3. Uşbu Qoidalarning amal qilişi boşqa elektron pullar tizimlarida elektron pullardan foydalangan holda tölovlar va/yoki boşqa operatsiyalarni amalga oşiriş bilan boğliq munosabatlarga tatbiq etilmaydi va «CLICK»ning ularda iştirok etişini çeklamaydi.

1.1.4. Uşbu Qoidalarning «CLICK» elektron pullar tizimining barça Iştirokçilari tomonidan bajarilişi majburiydir. Har bir Iştirokçi boşqa Iştirokçilarga zarur huquq layoqatiga (huquq subyektligiga), şuningdek uşbu Qoidalarga qöşiliş va ularning barça şartlariga muvofiq majburiyatlarni bajariş uçun zarur va yetarli bölgan barça huquq va vakolatlarga ega ekanligini kafolatlaydi.

1.1.5. «CLICK» elektron pullar tizimi doirasida Tölov xizmatlari foydalanuvçilari tomonidan şartnomalar tuziş Özbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi hamda 369-moddasi ikkinçi qismiga muvofiq amalga oşiriladi. Bunda Şartnoma Foydalanuvçi tomonidan, şu jumladan «CLICK» elektron pullar tizimi doirasida, tölov xizmatlarini körsatiş töğrisidagi Ommaviy ofertada nazarda tutilgan harakatlar sodir etilgan paytdan boşlab tuzilgan hisoblanadi va kuçga kiradi. Ommaviy oferta quyidagi manzilda joylaştirilgan: https://click.uz/ru/terms.

2. Normativ havolalar

Uşbu Qoidalar quyida körsatilgan taşqi va içki normativ-huquqiy hamda farmoyiş hujjatlariga muvofiq işlab çiqilgan:

2.1. Taşqi normativ hujjatlar

Jadval № 1. Taşqi normativ hujjatlar

T/r	Hujjat nomi
1	ISO 9001:2015 xalqaro standarti
2	Özbekiston Respublikasining «Tölovlar va tölov tizimlari töğrisida»gi Qonuni
3	Özbekiston Respublikasi hududida elektron pullarning çiqarilişi va muomalada bölişi qoidalari

Hujjat «CLICK» AJ mulki hisoblanadi.
Hujjatni ruxsatsiz köpaytiriş va tarqatiş taqiqlanadi hamda ÖzR qonunçiligiga muvofiq ta'qib qilinadi.

3. Ta’riflar va qisqartmalar

3.1. Ta’riflar

Jadval 3. Ta’riflar

Atama	Ta’rif
Kompaniya	«CLICK» AJ.
Qoidalar	«CLICK» elektron pullar tizimining faoliyat yuritiş qoidalari
Elektron pullar tizimi agenti (Agent)	Emitent yoki elektron pullar tizimi operatori bilan tuzilgan şartnoma asosida jismoniy şaxslarga elektron pullarni sotib oliş va sotiş böyiça operatsiyalarni amalga oşiruvçi banklar yoki tölov agentlari
Tizim/Operatorning internet-resursi	https://click.uz;
Emitent/Bankning internet-resursi	https://aab.uz;
Elektron pullardan foydalaniş	Elektron pullar egasi tomonidan elektron pullarni elektron pullar tizimining boşqa iştirokçisiga savdo va xizmatlar bilan şuğullanuvçi yuridik şaxslardan, şuningdek uşbu elektron pullar tizimining subyekti hisoblangan yakka tartibdagi tadbirkorlardan tovarlar va xizmatlar sotib oliş maqsadida yoki pul mablağlarini bir elektron hamyondan boşqasiga ötkaziş operatsiyasi natijasida beriş
Elektron pullar tizimi operatori	Elektron pullar tizimining faoliyat yuritişini, şu jumladan elektron pullardan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oşirişda şakllanadigan axborotni yiğiş, qayta işlaş va uzatişni ta’minlovçi, şuningdek elektron pullar emitenti (emitentlari) bilan tuzilgan şartnomaga muvofiq elektron pullar tizimining faoliyat yuritiş qoidalarini belgilovçi tölov taşkiloti. Operator elektron pullar tizimida tranzaksiyaning bajarilişini uşbu qoidalarga muvofiq ta’minlaydi
Tölov	Pul majburiyatini naqd pul mablağlari bilan ijro etiş yoki tölov instrumentlaridan foydalangan holda pul mablağlarini ötkaziş
Elektron pullarni qoplaş	Elektron pullar emitenti tomonidan u çiqargan, elektron pullar egasi taqdim etgan elektron pullarni ularning nominal qiymatiga teng pul mablağlari summasiga almaştirişni nazarda tutuvçi tölov xizmati
CLICK Tizimi foydalanuvçilari (Tölov xizmati foydalanuvçisi, iste’molçi)	Jismoniy şaxslar – bankda bank depozit hisobvaraği oçgan şaxslar, plastik karta egalari yoki CLICK Tizimida oçilgan virtual hisobvaraq (CLICK-hamyon) egalari
Tölovlarni oluvçi (keyingi örinlarda – Yetkazib beruvçi, Merchant)	CLICK Tizimi orqali bitim tuzişda tölov sifatida kelib tuşgan tölovlar uning foydasiga qabul qilinadigan yakka tartibdagi tadbirkor va (yoki) yuridik şaxs, özini özi band qilgan şaxs
«CLICK» elektron pullar tizimi (Tizim, «CLICK» Tizimi)	Elektron pullar tizimi operatorining elektron pullar emitenti va (yoki) elektron pullar egalari bilan özaro hamkorligi orqali elektron pullardan foydalangan holda tölovlar va boşqa operatsiyalarni amalga oşirişni ta’minlovçi dasturiy-texnik vositalar, hujjatlar hamda taşkiliy-texnik tadbirlar majmui

Hujjat «CLICK» AJ mulki hisoblanadi.
Hujjatni ruxsatsiz köpaytiriş va tarqatiş taqiqlanadi hamda ÖzR qonunçiligiga muvofiq ta’qib qilinadi.

Elektron pullar tizimining subyektlari	Emitent-bank, elektron pullar tizimining operatori va agentlari, elektron pullar egalari, şuningdek Elektron pullar tizimi operatori bilan şartnoma tuzgan banklar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik şaxslar
Elektron pullar	Elektron şaklda saqlanadigan va elektron pullar tizimida tizimning boşqa iştirokçilari tomonidan tölov vositasi sifatida qabul qilinadigan Elektron pullar emitentining şartsiz va qaytarib olinmaydigan pul majburiyatlari
Elektron hamyon	Elektron pullar tizimining dasturiy ta'minoti, elektron pullar saqlanadigan va ulardan foydalaniş imkonini beruvçi mikroprotsessor (çip), dasturiy-texnik qurilma
Elektron pullar emitenti yoki Emitent	Uşbu Qonunga muvofiq elektron pullarni çiqariş va qoplaş huquqiga ega bölgan Özbekiston Respublikasi banki
JDL/TM töğrisidagi Qonun	Özbekiston Respublikasining «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallaştirişga, terrorizmni moliyalaştirişga va ommaviy qirğin qurolini tarqatişni moliyalaştirişga qarşi kuraşiş töğrisida»gi Qonuni
Merchant	Tölovlarni qabul qiliş tizimiga ulangan tovarlar yoki xizmatlar sotuvçisi/yetkazib beruvçisi

3.2. Qisqartmalar

Jadval 4. Qisqartmalar

Qisqartma	Ma'nosi
EP	Elektron pullar
CLR (Common Language Runtime)	MSSQL asosidagi maxsus ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan, şifrlaş va deşifrlaş uçun foydalaniladigan işlab çiqilgan kutubxona
KHV	Kriptografik himoya vositalari
MB	Ma'lumotlar bazasi

4. Javobgarlik

4.1. Uşbu Qoidalarga rioya etilişi uşbu hujjatda tavsiflangan funksiyalarni bajarişning yuridik kuçini ta'minlaydi.

4.2. Qoidalarni amalga oşirişda funksiyalar va majburiyatlar uçun «CLICK» AJ Boş direktori javobgar böladi.

5. «CLICK» elektron pullar tizimining faoliyat yuritiş qoidalari

5.1. Tölov taşkiloti tomonidan körsatiladigan tölov xizmatlarining tavsifi

5.1.1. Elektron pullarni sotiş (tarqatiş) böyiça xizmatlar – elektron pullarni Agentlar orqali, şuningdek bevosita elektron pullar emitenti tomonidan sotiş böyiça xizmatlar.

5.1.2. Elektron pullardan foydalangan holda amalga oşiriladigan tölovlarni qabul qiliş va qayta işlaş böyiça xizmatlar – tizim iştirokçilarining topşiriğiga binoan elektron pullar bilan operatsiyalarni protsessing qiliş (ötkaziş, yozib boriş, qayta işlaş) böyiça xizmatlar.

Hujjat «CLICK» AJ mulki hisoblanadi.
Hujjatni ruxsatsiz köpaytiriş va tarqatiş taqiqlanadi hamda ÖzR qonunçiligiga muvofiq ta'qib qilinadi.

5.2. Tölov taşkiloti mijozlariga tölov xizmatlarini körsatiş tartibi va muddatlari

5.2.1. «CLICK» elektron pullar tizimi servisiga kiriş quyidagi usullardan biri bilan amalga oşiriladi:

– Tizimning internet-resursi orqali: https://click.uz;

– mobil qurilmalar uçun yaratilgan Operatorning maxsus dasturiy ta'minoti (ilova, bot, servis) orqali;

– Tizim Dasturiga integratsiya qilingan Operatorning maxsus dasturiy ta'minoti (ilova) orqali.

5.2.2. Iştirokçilar uçun Tizimda mavjud operatsiyalar:

5.2.2.1. Tizim iştirokçilari – Tölov xizmatlari foydalanuvçilari uçun Tizimda röyxatdan ötgandan söng quyidagi operatsiyalar mavjud:

– Qoidalarga muvofiq EP sotib oliş, uşbu Qoidalarga muvofiq Tizimda EP bilan operatsiyalarni amalga oşiriş – sutkasiga 24 soat;

– sotilgan tovarlar, bajarilgan işlar, körsatilgan xizmatlar uçun tölovlarni amalga oşiriş;

– EPni Tizimdagi boşqa elektron hamyonga elektron pullar egasi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisiga Özbekiston Respublikasi qonunçiligida va uşbu Qoidalarda nazarda tutilgan tartibda hamda şartlarda ötkaziş;

– özining ixtiyoridagi EPni qoplaş uçun taqdim etiş;

– elektron hamyonda elektron pullarning mavjudligi, holati va harakatlaniş tarixini istalgan davr uçun köriş;

– özining elektron hamyoni balansini köriş (dolzarblik faqat sörov paytiga tegişli);

– Tizimning faoliyat yuritişiga oid ma'lumotnoma xususiyatidagi va boşqa axborotni oliş.

5.2.2.2. Merchantlar uçun Tizimda röyxatdan ötgandan söng quyidagi operatsiyalar mavjud:

– özining elektron hamyoni balansini köriş (dolzarblik faqat sörov paytiga tegişli);

– uşbu Qoidalarga muvofiq EP egasi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisidan EP oliş;

– özining ixtiyoridagi EPni qoplaş uçun taqdim etiş;

– Tizimning faoliyat yuritişiga oid ma'lumotnoma xususiyatidagi va boşqa axborotni oliş.

5.2.2.3. Agentlar uçun Tizimda röyxatdan ötgandan söng quyidagi operatsiyalar mavjud:

– özining elektron hamyoni balansini köriş (dolzarblik faqat sörov paytiga tegişli);

– EPni sotib oliş, ularni tarqatiş va qoplaş uçun taqdim etiş – uşbu Qoidalarda nazarda tutilgan tartibda va şartlarda;

– Tizimning faoliyat yuritişiga oid ma'lumotnoma xususiyatidagi va boşqa axborotni oliş.

5.2.2.4. Emitent Tizimda quyidagi operatsiyalarni amalga oşirişi mumkin:

– «CLICK» Tizimida röyxatdan ötgan elektron hamyonlar egalari – Tölov xizmatlari foydalanuvçilari va Agentlarga Özbekiston Respublikasining milliy valyutasida elektron pullarni emissiya qiliş va sotiş;

– Tizim iştirokçilari – Tölov xizmatlari foydalanuvçilari, Agentlar va Merchantlarning elektron pullarini qoplaş;

– Emitent tomonidan emissiya qilingan va sotilgan elektron pullarni hisobga oliş;

– Tizimning işlaş texnologiyasiga muvofiq Operator bilan axborot almaşiş;

– Tizim iştirokçilari bilan tegişli şartnomalar tuziş;

– Tizimda amalga oşirilgan EP bilan operatsiyalar böyiça ma'lumotlarni köriş;

– Operator bilan tuzilgan şartnomaga hamda Özbekiston Respublikasining amaldagi qonunçiligiga muvofiq boşqa operatsiyalar.

Hujjat «CLICK» AJ mulki hisoblanadi.
Hujjatni ruxsatsiz köpaytiriş va tarqatiş taqiqlanadi hamda ÖzR qonunçiligiga muvofiq ta'qib qilinadi.

5.2.3. 5.2.2-bandda belgilangan Tizimning körsatilgan Iştirokçilari uçun operatsiyalar röyxati töliq emas va Tizim rivojlanişi bilan, şu jumladan, lekin ular bilan çeklanmagan holda, «CLICK» Tizimi elektron pullarini boşqa Elektron pullar tizimlarining elektron pullariga almaştiriş bilan töldirilişi mumkin.

5.3. Tölov taşkiloti tomonidan körsatiladigan tölov xizmatlarini texnologik jihatdan ta'minlovçi uçinçi şaxslar bilan özaro hamkorlik tartibi

5.3.1. Uçinçi şaxslar bilan özaro hamkorlik tizim Operatori sifatidagi «CLICK» tölov taşkiloti va/yoki tizim Emitenti sifatidagi Özbekiston Respublikasi banki örtasidagi şartnomaviy munosabatlarga asoslanadi.

5.3.2. Uçinçi şaxslar bilan texnik özaro hamkorlik tölov xizmatlarini körsatiş xavfsizligiga rioya etiş maqsadida Operator va uçinçi şaxslar tizimlarini yetarli xavfsizlik darajasida şartnoma asosida integratsiya qiliş yöli bilan amalga oşiriladi.

5.3.3. Texnik özaro hamkorlik parametrlari texnik özaro hamkorlik böyiça hujjatlarda tavsiflangan va manfaatdor şaxslarga sörov böyiça taqdim etiladi.

5.4. Axborot xavfsizligi çoralariga rioya etiş tartibi

5.4.1. Foydalanuvçilar hamyonlarining xavfsizligi foydalanuvçini quyidagi parametrlar böyiça avtorizatsiya va identifikatsiya qiliş orqali ta'minlanadi: login va parol.

5.4.2. Tölovlarni amalga oşiriş xavfsizligi şifrlaş orqali ta'minlanadi.

5.4.3. Tizimning barça ulanişlari boşqa serverlar bilan şifrlangan tunnel ulanişlar asosida quriladi.

5.5. Risklarni boşqariş usullari

5.5.1. Risklarni boşqariş usullari kompaniya Boş direktori tomonidan tasdiqlangan «"CLICK" tizimida qöllaniladigan risklarni boşqariş usullari» içki hujjati bilan belgilangan.

5.6. Iştirokçilarning huquq va majburiyatlari

5.6.1. Tizim iştirokçilari uşbu Qoidalarda, şuningdek Emitent (yoki uning nomidan harakat qiluvçi Operator) va Tizim iştirokçilari örtasidagi şartnomalarda bayon etilgan talablarga rioya etişlari şart. Qoidalarga va (yoki) şartnomaviy munosabatlarga rioya etmaslik şunday rioya etmaslikka yöl qöygan Iştirokçining Tizimdagi iştirokini töxtatiş uçun asoslardan biri bölişi mumkin.

5.6.2. Emitent Operator bilan şartnoma tuzilgandan söng Tizim iştirokçisiga aylanadi. Emitent va Operator örtasidagi munosabatlar Özbekiston Respublikasi qonunçiligi, Tizimning uşbu Qoidalari, şuningdek Emitent va Operator örtasida tuzilgan şartnomalar bilan tartibga solinadi.

5.6.3. Emitentning huquq va majburiyatlari:

5.6.3.1. Emitent quyidagi majburiyatlarga ega:

– Tizim iştirokçilari – Tölov xizmatlari foydalanuvçilari yoki Agentlardan pul olingandan söng, uşbu Tizim iştirokçilari bilan şartnomalarda belgilangan tartibda kvitansiya yoki Özbekiston Respublikasi qonunçiligi talablariga javob beradigan boşqa hujjat şaklida tasdiqni taqdim etgan holda, öz zimmasiga olinadigan majburiyatlarning nominal qiymatiga teng summada elektron pullar çiqariş;

– Tölov xizmatlari foydalanuvçilarini qonun hujjatlariga, şuningdek uşbu Qoidalarning 5.17-bandiga muvofiq identifikatsiya qiliş;

Hujjat «CLICK» AJ mulki hisoblanadi.
Hujjatni ruxsatsiz köpaytiriş va tarqatiş taqiqlanadi hamda ÖzR qonunçiligiga muvofiq ta'qib qilinadi.

– elektron pullar çiqarişda EP egasini (u Bankka bevosita murojaat qilganda) EP bilan operatsiyalarni amalga oşiriş tartibi va EPdan foydalanişda yuzaga keladigan risklar, da'volar beriş usullari, ularni körib çiqiş tartibi, şuningdek EP bilan operatsiyalarni amalga oşirişda olinadigan komission tölov turlari va miqdorlari haqidagi axborot bilan taniştiriş;

– Emitentning majburiyatlari va javobgarligiga taalluqli qismida Iştirokçilar bilan da'vo işini (zarur bölganda) olib boriş;

– Emitent tomonidan emissiya qilingan va sotilgan elektron pullar hisobini yuritiş;

– Tizimning işlaş texnologiyasiga va Tizim Qoidalariga muvofiq Operator bilan axborot almaşiş;

– Tizimni va unda joylaştirilgan Tizim iştirokçilari axborotini uçinçi şaxslarning ruxsatsiz kirişidan, şu jumladan xakerlik hujumlaridan himoya qilişni ta'minlaş hamda uşbu majburiyatni buzganlik uçun Tizim iştirokçilari oldida Tizim iştirokçilariga yetkazilgan haqiqiy zarar miqdorida javobgar böliş (uçinçi şaxslarning ruxsatsiz kirişi Tizim iştirokçilarining özlarining aybi bilan yuz bergan hollar bundan mustasno), Operatorga Operator bilan tuzilgan şartnoma şartlariga muvofiq zararlarni qoplaş töğrisida regress tartibida talablar qöyiş huquqi saqlangan holda;

– elektron pullar egalari va ularga tegişli elektron pullar summalari töğrisidagi ma'lumotlarni, şuningdek elektron pullardan foydalangan holda amalga oşirilgan operatsiyalar töğrisidagi ma'lumotlarni davlat organlari va vakolatli şaxslarga Özbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarda va doirada taqdim etiş.

– jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallaştirişga, terrorizmni moliyalaştirişga va ommaviy qirğin qurolini tarqatişni moliyalaştirişga qarşi kuraşiş böyiça vakolatli organga Özbekiston Respublikasining «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallaştirişga, terrorizmni moliyalaştirişga va ommaviy qirğin qurolini tarqatişni moliyalaştirişga qarşi kuraşiş töğrisida»gi Qonuni talablari ta'sir doirasiga tuşuvçi operatsiyalar töğrisidagi ma'lumotlarni taqdim etiş. (Tölovlar va tölov tizimlari töğrisida. 43-modda. Elektron pullardan foydalaniş)

5.6.3.2. Emitent özi çiqargan EPni ularning sömdagi nominal qiymatiga muvofiq qoplaş böyiça şartsiz va qaytarib olinmaydigan pul majburiyatini öz zimmasiga oladi. Bunda Merchant Tölov xizmatlari foydalanuvçisidan tölov çoğida olgan elektron pullarni qoplaş EP uning foydasiga kelib tuşgan kundan boşlab iş kuni davomida amalga oşiriladi, agar Operator va Merchant örtasida tuzilgan şartnomada boşqa muddat nazarda tutilmagan bölsa. EPning ruxsatsiz çiqarilişi holatida uşbu bandning şarti qöllanilmaydi.

5.6.3.3. Emitent Tizimga ruxsatsiz kiriş hollarida, şuningdek Emitentning tegişli dasturiy ta'minoti işida (faoliyat yuritişida) xatolar yoki nosozliklar yuzaga kelganda EP egasiga yetkazilgan zarar uçun Iştirokçilar bilan tuzilgan şartnomalar şartlariga muvofiq EP egasi oldida javobgar böladi.

5.6.3.4. Emitent quyidagi huquqlarga ega:

– EPni Agentga oldindan tölov şartlarida tarqatiş uçun beriş;

– Özbekiston Respublikasi qonunçiligi talablariga muvofiq Iştirokçilar bilan şartnomalar tuziş;

– Emitent tomonidan Tizim iştirokçilariga körsatiladigan xizmatlar uçun Emitent va Operatorning internet-resursida joylaştirilgan Emitent tariflariga muvofiq (yoki Emitent tomonidan Tizim iştirokçilari bilan tuzilgan şartnomalarda belgilangan tartibda Tizim iştirokçilari e'tiboriga havola etilgan tariflarga muvofiq) Tizim iştirokçilaridan komission tölov undiriş;

– tegişli pul talabini bajariş Özbekiston Respublikasi qonunçiligi yoki uşbu Qoidalar talablarining buzilişiga olib kelsa, şuningdek Tizim iştirokçilarining elektron hamyonlariga elektron pullar ruxsatsiz ötkazilganligi aniqlangan taqdirda EPni tarqatişni va/yoki ulardan foydalanişni va/yoki ularni qoplaşni töxtatib turiş;

Hujjat «CLICK» AJ mulki hisoblanadi.
Hujjatni ruxsatsiz köpaytiriş va tarqatiş taqiqlanadi hamda ÖzR qonunçiligiga muvofiq ta'qib qilinadi.

– Tizimdan çiqiş. Emitentning Tizimdagi iştiroki Emitent tomonidan Operator nomiga yuborilgan Tizimdan ixtiyoriy çiqiş tögrisidagi yozma ariza asosida, Emitent quyidagi majburiy şartlarga rioya etgan holda tugatiladi:

a. elektron pullar çiqariş faoliyati töxtatilganda Emitent kamida öttiz kun oldin Markaziy bankka tegişli xabarnoma yuboradi;

b. Operatorga Tizimdan çiqiş tögrisidagi yozma arizani çiqişning taxminiy sanasidan kamida bir oy oldin yuboriş;

c. Emitent tomonidan «CLICK» elektron pullar tizimida çiqarilgan elektron pullar bilan amalga oşirilgan operatsiyalar böyiça Tizim iştirokçilari oldidagi barça qarzdorliklarni qoplaş. Bank tomonidan Tizim iştirokçilariga elektron pullar qoldiqlarini qoplaşni amalga oşiriş uçun elektron pullar egalarining bank rekvizitlari mavjud bölmagan taqdirda, Emitent öz saytida Emitent sifatidagi faoliyatni töxtatiş tögrisidagi axborotni bunday hodisa yuz berişidan kamida 1 (bir) oy oldin joylaştiradi, şuningdek elektron hamyonlarida EP qoldiği bölgan barça Tizim iştirokçilarini barça mavjud vositalar bilan xabardor qiladi (elektron pullar egalari şu maqsadlar uçun öz rekvizitlarini – telefon raqami, elektron manzil, poçta manzili va boşqalarni körsatgan taqdirda);

– quyidagi hollarda EP egasining elektron hamyonini bloklaş:

a. EP egasidan, şu jumladan elektron hamyon yöqolgan, öğirlangan yoki undan ruxsatsiz foydalanilgan taqdirda, xabarnoma olinganda;

b. EP egasi Emitent va EP egasi örtasida tuzilgan şartnomaga muvofiq elektron hamyon bloklanişi nazarda tutilgan öz majburiyatlarini bajarmaganda;

c. elektron pullardan foydalanişning belgilangan talablari va şartlari buzilgan holda operatsiyalar amalga oşirilganda;

d. Özbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarda EP egasining elektron pullari xatlanganda;

e. Özbekiston Respublikasining «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallaştirişga, terrorizmni moliyalaştirişga va ommaviy qirğin qurolini tarqatişni moliyalaştirişga qarşi kuraşiş töğrisida»gi Qonunida (keyingi örinlarda – JDL/TM töğrisidagi Qonun) nazarda tutilgan hollarda;

f. Emitent va EP egasi örtasidagi şartnomada nazarda tutilgan boşqa asoslarda.

EP egasining elektron hamyonini bloklaş uning va Emitentning elektron hamyon bloklangunga qadar yuzaga kelgan majburiyatlarini bekor qilmaydi.

5.6.4. Tizim Operatorining huquq va majburiyatlari:

5.6.4.1. Operator quyidagilarga majbur:

– Tizim iştirokçilarining axborot va texnologik özaro hamkorligini ta’minlaş;

– uşbu Qoidalar va Tizim iştirokçilari bilan tuzilgan şartnomalar şartlariga muvofiq Tizim iştirokçilariga xizmat körsatiş;

– Tizim veb-saytining axborot va operatsion faoliyat yuritişini ta’minlaş;

– zarur bölganda Emitent bilan birgalikda (kelişuv asosida) uşbu Qoidalarga va tegişli şartnomalarga özgartirişlar kiritiş, Qoidalar/şartnomaning yangi tahririni yoki ularga özgartiriş va qöşimçalar matnini tölov tizimi operatori tomonidan tasdiqlanganidan keyin uç iş kuni içida tölov tizimi operatorining rasmiy veb-saytida e’lon qiliş, şuningdek özgartirişlar töğrisidagi ma’lumotlarni Markaziy bankka ularni amalga kiritiş sanasidan kamida ön beş iş kuni oldin taqdim etiş;

– moliyaviy monitoring subyektlariga qöyiladigan JDL/TM töğrisidagi Qonunda belgilangan talablarning bajarilişini ta’minlaş;

Hujjat «CLICK» AJ mulki hisoblanadi.
Hujjatni ruxsatsiz köpaytiriş va tarqatiş taqiqlanadi hamda ÖzR qonunçiligiga muvofiq ta’qib qilinadi.

– Tizimga kiritiladigan barça texnologik özgarişlarni Emitent bilan kelişiş, keyinçalik bunday özgarişlarni uşbu Qoidalarga kiritiş (agar uşbu texnologik jarayonlar uşbu Qoidalar bilan tartibga solingan bölsa) va özgarişlarni Tizimning internet-resursida joylaştiriş;

– Tizimda amalga oşiriladigan operatsiyalarni qayta işlaş;

– Tizim iştirokçilari – Tölov xizmatlari foydalanuvçilari tomonidan Tizimda EP bilan operatsiyalar amalga oşirilganda ularni identifikatsiyadan ötgan va identifikatsiyadan ötmagan elektron pullar egalari sifatida aniqlaşni Tizimda ta'minlaş;

– uşbu Qoidalarga muvofiq identifikatsiyadan ötgan va identifikatsiyadan ötmagan elektron pullar egalarining operatsiyalar summalari böyiça çeklovlar örnatilişini Tizimda ta'minlaş, şuningdek Tizimda uşbu çeklovlarga rioya etilişi ustidan nazoratni amalga oşiriş;

– Emitentning söroviga binoan, Emitent belgilagan muddatlarda Iştirokçilar tomonidan Tizim doirasida amalga oşirilgan EP bilan operatsiyalarga oid axborot va zarur hujjatlarni taqdim etiş;

– Tizim iştirokçilarini rejali texnik işlar munosabati bilan Tizim işining töxtatib turilişi haqida öz vaqtida xabardor qiliş;

– Merchantlar bilan Tizimda özaro hamkorlik töğrisida şartnomalar tuziş;

– «CLICK» elektron pullar tizimining faoliyat yuritişi qismida da'vo işini (zarur bölganda) olib boriş, şuningdek alohida mas'ul xodimni biriktiriş va Operatorning internet-resursida joylaştirilişi lozim bölgan telefon raqamini belgilaş orqali munozarali (nizoli) vaziyatlarni hal etiş böyiça işni amalga oşiriş.

5.6.4.2. Elektron hamyonning holati (balansi) töğrisidagi axborot, EP egasining elektron hamyonga nisbatan harakatlari, tölovlarni amalga oşiriş tarixi, şuningdek Tizimdan foydalaniş uçun ahamiyatga ega bölgan boşqa axborot Operator tomonidan Tizimning ma'lumotlar bazasida kamida beş yil davomida qayd etiladi va saqlanadi, unga Bank kiriş huquqiga ega. Tizimdagi uşbu axborot Bank tomonidan uçinçi şaxslarga Özbekiston Respublikasi amaldagi qonunçiligi talablariga muvofiq taqdim etilişi mumkin.

5.6.4.3. Tizim Operatori quyidagi huquqlarga ega:

– Emitent bilan birgalikda (kelişuv asosida) Tizimning uşbu Qoidalariga özgartirişlar kiritiş;

– Operator tomonidan Tizim iştirokçilariga körsatiladigan xizmatlar uçun tuzilgan şartnomalar şartlariga muvofiq, Operatorning internet-resursida joylaştirilgan Operator tariflariga binoan Tizim iştirokçilaridan komission tölov undiriş, şu jumladan Elektron pullar egalari hisoblangan Tizim iştirokçilari – Tölov xizmatlari foydalanuvçilaridan haq undiriş;

– Iştirokçining EPdan tölov vositasi sifatida foydalanişini töxtatib turiş va/yoki töxtatiş:

a. Iştirokçidan olingan xabarnoma asosida;

b. Iştirokçi EPdan foydalaniş tartibini buzganda.

5.6.4.4. Tizim Operatori Emitent öz majburiyatlarini Özbekiston Respublikasining vakolatli davlat organlari oldida lozim darajada bajarişiga ta'sir qiladigan yoki ta'sir qilişi mumkin bölgan operatsiyani amalga oşiriş/ötkazişda iştirok etayotgan Tizim iştirokçilari – Tölov xizmatlari foydalanuvçilariga nisbatan söralayotgan axborotni Emitentga öz vaqtida taqdim etmaganlik uçun javobgar böladi.

5.6.4.5. Tizim Operatori quyidagilar uçun javobgar bölmaydi:

– Tizimning boşqa iştirokçilari internet-resurslarida e'lon qilingan materiallarning mazmuni, işonçliligi va aniqligi uçun;

– boşqa Iştirokçilar tomonidan uçinçi şaxslarning mualliflik va boşqa huquqlarining buzilişi uçun.

Hujjat «CLICK» AJ mulki hisoblanadi.
Hujjatni ruxsatsiz köpaytiriş va tarqatiş taqiqlanadi hamda ÖzR qonunçiligiga muvofiq ta'qib qilinadi.

Operator tölov taşkiloti bölgani holda, tölov xizmatlarini körsatiş böyiça agentlik şartnomasi asosida mijozlarga Agent orqali tölov xizmatlarini körsatişga haqli. Operator quyidagi turdagi tölov xizmatlarini körsatadi:

– elektron pullarni Tölov xizmatlari foydalanuvçisiga va elektron pullar tizimi agentiga emitentdan sotib olingan elektron pullarni elektron pullar tizimi tomonidan har bir elektron pullar egasi uçun şakllantiriladigan elektron hamyonga ötkaziş orqali, Emitent tomonidan Operatorga şartnomaga muvofiq berilgan vakolatlar asosida sotiş;

– elektron pullardan foydalangan holda amalga oşiriladigan tölovlarni qabul qiliş va qayta işlaş böyiça xizmatlar;

– mijoz tomonidan elektron şaklda taşabbus qilingan tölovlarni qayta işlaş va uşbu tölovlar böyiça tölovni va (yoki) pul ötkazmasini amalga oşiriş yoki pulni qabul qiliş uçun zarur axborotni Emitentga uzatiş böyiça xizmatlar.

Operatorga uşbu qoidalarda tavsiflangan boşqa tadbirkorlik faoliyatini amalga oşiriş taqiqlanadi, quyidagi faoliyat turlari bundan mustasno:

– reklama, marketing, konsalting va axborot xizmatlari;

– dasturiy ta’minotni işlab çiqiş, moslaştiriş, modifikatsiya qiliş, texnik qöllab-quvvatlaş;

– axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniş bilan boğliq xizmatlar, şu jumladan axborot-texnik xizmatlar, ma’lumotlarni qayta işlaş va uzatiş xizmatlari, ma’lumotlar bazalari va axborot resurslarini yaratiş hamda ulardan foydalaniş;

– axborot tizimlari va tarmoqlarini yaratiş hamda ularning xavfsizligini ta’minlaş;

– axborotni kriptografik himoya qiliş vositalarini işlab çiqiş va sotiş;

– mikromoliyaviy xizmatlar.

5.6.4.6. Operator Özbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ-huquqiy hujjati bilan belgilangan şakllar va tartibda Özbekiston Respublikasi Markaziy bankiga ma’lumotlar va hisobotlarni taqdim etadi.

5.6.4.7. Operator öz Agentlari reyestrlarini tasdiqlangan şakl böyiça yuritişi lozim.

5.6.4.8. Operator Agent tomonidan Özbekiston Respublikasining tölovlar va tölov tizimlari töğrisidagi qonunçilik talablariga, şuningdek Agent va Operator/Emitent örtasidagi şartnomada belgilangan tölov xizmatlarini körsatiş şartlariga rioya etilişi ustidan nazoratni amalga oşiradi. Uşbu nazorat Operatorning har 3 (uç) oyda hisobot davri uçun elektron pullarni sotiş va qayta sotib oliş böyiça joriy operatsiyalarni tahlil qiliş orqali Agent faoliyati monitoringini ötkazişidan iborat.

5.6.4.9. Tölov xizmatlarini körsatiş böyiça agentlik şartnomalarini tuzgan Operator Özbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ-huquqiy hujjati bilan belgilangan tartibda Özbekiston Respublikasi Markaziy bankiga uşbu xizmatlar, şuningdek öz Agentlari töğrisidagi ma’lumotlarni taqdim etadi.

5.6.5. Agentning Tizimdagi huquq va majburiyatlari:

5.6.5.1. Agentning huquq va majburiyatlari uşbu Qoidalar hamda Operator va Agent örtasida tuzilgan şartnoma bilan belgilanadi.

5.6.5.2. EPni sotişda Agent EP egasini EP bilan operatsiyalarni amalga oşiriş tartibi va EPdan foydalanişda yuzaga keladigan risklar, da’volar beriş usullari va ularni körib çiqiş tartibi, şuningdek EPdan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oşirişda olinadigan komission tölov turlari va miqdorlari haqidagi axborot bilan taniştiradi.

5.6.5.3. Agent EPni identifikatsiyadan ötgan va identifikatsiyadan ötmagan elektron pullar egalariga sotişda hamda EPni identifikatsiyadan ötgan elektron pullar egalaridan sotib olişda Qoidalarning 5.11.5.5-bandi (va 5.13.7-bandi)da nazarda tutilgan çeklovlarning buzilişiga yöl qöymasligi şart.

Hujjat «CLICK» AJ mulki hisoblanadi.
Hujjatni ruxsatsiz köpaytiriş va tarqatiş taqiqlanadi hamda ÖzR qonunçiligiga muvofiq ta’qib qilinadi.

5.6.5.4. Agent Emitentning söroviga binoan Agent tomonidan identifikatsiyadan ötgan elektron pullar egalari – Tölov xizmatlari foydalanuvçilari bilan amalga oşirilgan EP bilan bitimlar böyiça axborotni tegişli sörovda belgilangan muddatlarda taqdim etişi şart.

5.6.5.5. Agent quyidagi huquqlarga ega:

– quyidagi hollarda Tizim iştirokçisi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisiga EP sotib olişni bir tomonlama tartibda rad etiş:

a. Tizim iştirokçisi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisi tomonidan uşbu Qoidalar talablariga rioya etilmaganda;

b. tölov rekvizitlarini töldirişga nisbatan qonunçilikda belgilangan talablar buzilganda;

c. pul summasi EP sotib oliş uçun yetarli bölmaganda yoki Tizim iştirokçisi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisi uçun ularni sotib olişga mavjud bölgan EP summasidan oşib ketganda (Qoidalar bilan identifikatsiyadan ötgan va identifikatsiyadan ötmagan elektron pullar egalari uçun belgilangan çeklovlarga muvofiq).

– Agent tomonidan körsatiladigan xizmatlar (EP sotiş, EPni çiqarib oliş) uçun Operatorning saytida joylaştirilgan Agent tariflariga muvofiq Tizim iştirokçilari – Tölov xizmatlari foydalanuvçilaridan komission tölov undiriş;

– EPni naqd pul qabul qiliş operatsiyalarini amalga oşiriş imkonini beruvçi elektron terminallar, naqd pul qabul qiliş punktlari va Özbekiston Respublikasi qonunçiligiga zid bölmagan boşqa usullar orqali sotiş.

5.6.5.6. Emitent bilan kelişuvga binoan Agent elektron pullarni elektron pullar tizimida elektron hamyonlarga ega bölgan şaxslarga sotiş maqsadida elektron pullarga ega bölgan Tölov xizmatlari foydalanuvçilaridan nominal qiymat böyiça sotib olişi mumkin.

5.6.5.7. Agent Emitent öz majburiyatlarini vakolatli davlat organlari oldida lozim darajada bajarişiga ta'sir qiladigan yoki ta'sir qilişi mumkin bölgan operatsiyani amalga oşiriş/ötkazişda iştirok etayotgan Tizim iştirokçilari – Tölov xizmatlari foydalanuvçilariga nisbatan söralayotgan axborotni Emitentga öz vaqtida taqdim etmaganlik uçun javobgar böladi.

5.6.6. Merchantning huquq va majburiyatlari:

5.6.6.1. Merchant quyidagilarga majbur:

– Tizim iştirokçilari – Tölov xizmatlari foydalanuvçilaridan EPni sotilgan tovarlar yoki xizmatlar uçun tölov sifatida qabul qiliş;

– Merchant tovarlar/xizmatlar/işlarni sotişni töxtatib turgan yoki töxtatgan taqdirda bu haqda Tizim Operatori va Emitentga zudlik bilan, lekin Merchant tovarlar/işlar/xizmatlarni sotişni töxtatib turgan yoki töxtatgan kundan keçiktirmay xabar beriş;

– pulni naqd pulsiz tartibda, bank hisobvarağiga ötkaziş yöli bilan qoplaş töğrisidagi Arizani qayta işlaş uçun Emitent/Operator komissiyasini tölaş;

– özining reklama-axborot materiallarida tovarlar/işlar/xizmatlar uçun Tizim orqali tölaş usuliga taalluqli qismida «CLICK» elektron pullar tizimi haqida işonçli axborotni joylaştiriş va dolzarb holatda saqlab turiş;

– elektron hamyonni röyxatdan ötkaziş/oçiş va operatsiyalarni amalga oşiriş uçun zarur hujjatlar paketini Operatorga sözsiz taqdim etiş;

– uşbu Qoidalarga va Merchant bilan Operator örtasida imzolangan şartnoma şartlariga muvofiq Merchant zimmasiga yuklatilgan boşqa majburiyatlarni bajariş.

5.6.6.2. Merchant quyidagi huquqlarga ega:

– uşbu Qoidalarga va Merchant bilan Operator örtasida tuzilgan şartnoma şartlariga muvofiq «CLICK» elektron pullar tizimining iştirokçisi böliş;

– özining ixtiyoridagi EPni Merchant va Operator örtasida tuzilgan şartnomada nazarda tutilgan şartlarga muvofiq Emitent tomonidan qoplanişi uçun taqdim etiş.

Hujjat «CLICK» AJ mulki hisoblanadi.
Hujjatni ruxsatsiz köpaytiriş va tarqatiş taqiqlanadi hamda ÖzR qonunçiligiga muvofiq ta'qib qilinadi.

5.6.7. Tizim iştirokçisi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisining Tizimdagi huquq va majburiyatlari:

5.6.7.1. Tölov xizmatlari foydalanuvçisi – Tizim iştirokçisi quyidagilarga majbur:

– Tizimda EP bilan operatsiyalarni amalga oşirişga kiriş huquqi berilişi munosabati bilan qöyiladigan Tizim Qoidalari, Emitent va Operator talablarini bajariş;

– Tizimda EP bilan operatsiyalarni amalga oşiriş uçun komission tölovni (mavjud bölsa) Tizim va Emitentning internet-resursida joylaştirilgan Operator, Emitent, Agentning amaldagi tariflariga muvofiq (Emitent tomonidan belgilanadigan tariflarga nisbatan) tölaş;

– özining avtorizatsiya parametrlari (foydalanuvçi nomi, parol) haqidagi axborotni oşkor qilmaslik/boşqa şaxslarga bermaslik. Bunda bu bilan boğliq holda yuzaga kelişi mumkin bölgan barça xarajatlar va zararlarni Tizim iştirokçisi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisi mustaqil ravişda öz zimmasiga oladi va Operator/Emitentdan ularni qoplaşni talab qilişga haqli emas;

– «CLICK» Tizimiga özining ulanişini mustaqil ravişda ta’minlaş;

– Tizim orqali elektron pullar bilan operatsiyalarni amalga oşirişga kirişni bloklaş maqsadida Tizim iştirokçisi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisining elektron hamyonlariga ruxsatsiz kiriş aniqlanganligi yoki ruxsatsiz kirişga şubha mavjudligi haqida Operator/Emitentni Tizim orqali zudlik bilan xabardor qiliş;

– ruxsatsiz kiriş holatlarini aniqlaş maqsadida özining elektron hamyonlari holatini nazorat qiliş;

– «CLICK» elektron pullar tizimidan Tizim Qoidalari va Ofertaga töliq muvofiq ravişda foydalaniş;

– xavfsizlik qoidalariga rioya etiş va Tizimdan foydalaniş qoidalariga amal qiliş, har bir iş seansidan söng Tizim bilan işlaş uçun oçilgan Internet tarmoğiga ulanişning barça sessiyalarini yopişni ta’minlaş;

– elektron pullardan foydalangan holda tölov amalga oşiriş zarur bölganda, Emitent va/yoki Operatorning amaldagi tariflariga muvofiq tölovni va komission tölovni amalga oşiriş uçun yetarli miqdordagi elektron pullarni ta’minlaş;

– elektron pullardan tadbirkorlik faoliyati bilan boğliq tölovlar va/yoki ötkazmalar sifatida foydalanmaslik;

– Tizimda identifikatsiyadan ötişda uşbu Qoidalarning 5.13.2-bandiga muvofiq hujjatlarni sözsiz taqdim etiş va töldiriş;

– uşbu Qoidalarga va Oferta şartlariga muvofiq boşqa majburiyatlarni bajariş.

5.6.7.2. Tölov xizmatlari foydalanuvçisi – Tizim iştirokçisi quyidagi huquqlarga ega:

– «CLICK» elektron pullar tizimi orqali EP bilan operatsiyalarni Tizimning uşbu Qoidalarida va Oferta şartlarida nazarda tutilgan şartlarda amalga oşiriş;

– Operator, Emitent va Agentdan Tizim Qoidalari va Oferta şartlariga muvofiq öz majburiyatlarini lozim darajada bajarişni talab qiliş;

– «CLICK» elektron pullar tizimi Qoidalari va Oferta şartlariga muvofiq Tizimdagi elektron hamyonlarni yopgan holda «CLICK» elektron pullar tizimi xizmatlaridan voz keçiş.

5.6.7.3. Tölov xizmatlari foydalanuvçisi – Tizim iştirokçisi Operator tomonidan Tizim doirasida körsatilgan xizmatlar uçun Ofertada nazarda tutilgan tartibda yoki Operator tomonidan Tizimning internet-resursida joylaştirilgan tartibda tölov qiladi. Operator Tizim iştirokçisi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisidan Tizimda xizmatlar körsatganlik uçun elektron pullar bilan haq undirişga haqli.

5.6.7.4. Yuzaga keladigan barça masalalar böyiça Tizim iştirokçilari Operatorning internet-resursida joylaştirilgan aloqa telefonlari va elektron manzillar orqali qöllab-quvvatlaş xizmatiga murojaat qilişlari mumkin.

Hujjat «CLICK» AJ mulki hisoblanadi.
Hujjatni ruxsatsiz köpaytiriş va tarqatiş taqiqlanadi hamda ÖzR qonunçiligiga muvofiq ta’qib qilinadi.

5.7. «CLICK» elektron pullar tizimiga qöşiliş tartibi

5.7.1. Iştirokçilarning Tizimga qöşilişi va ularning EPdan foydalanişi Tizimning uşbu Qoidalari hamda tuzilgan şartnomalar şartlariga, şu jumladan Oferta şartlariga muvofiq amalga oşiriladi.

5.7.2. Iştirokçilarning Tizimga qöşilişi bepul asosda amalga oşiriladi.

5.7.3. Tölov xizmatlari foydalanuvçilarining Tizimga qöşiliş tartibi:

5.7.3.1. «CLICK» Tizimining iştirokçisi uşbu Qoidalarga muvofiq Tizimda röyxatdan ötiş tartib-taomilidan ötgan har qanday jismoniy şaxs bölişi mumkin.

5.7.3.2. Tizimga qöşiliş va EP bilan operatsiyalarni amalga oşiriş uçun Tölov xizmatlari foydalanuvçisi Tizim va Emitentning internet-resurslarida joylaştirilgan uşbu Qoidalar va Oferta şartlari bilan tanişişi va ularga rozilik bildirişi zarur.

5.7.3.3. Tölov xizmatlari foydalanuvçisi tomonidan Emitent va Operator bilan Ofertani aksept qiliş, uning Tizimga qöşilişi va uşbu Qoidalar şartlarini tan olişi Tölov xizmatlari foydalanuvçisi Tizimda röyxatdan ötganda Operatorning internet-resursida röyxatdan ötiş şakllarini töldirişda röyxatdan ötiş şaklining tegişli maydonida Qoidalar va Ofertaga rozilik belgisini qöyiş orqali avtomatik ravişda amalga oşiriladi. Oferta şartlariga rozilik Tölov xizmatlari foydalanuvçisi tomonidan uşbu şartnoma şartlari heç qanday çeklovlarsiz töliq va sözsiz qabul qilinganligini bildiradi va yozma şartnoma tuzilişiga tenglaştiriladi.

5.7.4. Agentlarning Tizimga qöşiliş tartibi:

5.7.4.1. Agentning Tizimga qöşilişi Özbekiston Respublikasi qonunçiligi va uşbu Qoidalar talablariga muvofiq Operator bilan şartnoma imzolaş orqali amalga oşiriladi.

5.7.5. Merchantlarning Tizimga qöşiliş tartibi:

5.7.5.1. Merchantning Tizimga qöşilişi Özbekiston Respublikasi qonunçiligi va uşbu Qoidalar talablariga muvofiq Merchant va Operator örtasida şartnomani yozma ravişda tuziş orqali amalga oşiriladi.

5.8. Tölov xizmatlari foydalanuvçilarining elektron hamyonlarini Tizimda röyxatdan ötkaziş va oçiş. Jismoniy şaxslar tomonidan Tizimda operatsiyalar ötkazişga çeklovlar

5.8.1. Tölov xizmatlari foydalanuvçisini Tizimda röyxatdan ötkaziş bevosita Operatorning internet-resursida yoki Operatorning mijoz ilovalari orqali röyxatdan ötiş böyiça körsatmalarga amal qilgan holda amalga oşiriladi. Uşbu tartib böyiça röyxatdan ötgan jismoniy şaxs Tizimda identifikatsiyadan ötmagan elektron pullar egasi maqomini oladi. Identifikatsiyadan ötgan elektron pullar egasi maqomini oliş uçun Tölov xizmatlari foydalanuvçisi Özbekiston Respublikasining amaldagi qonunçiligi va uşbu Qoidalar talablariga muvofiq identifikatsiyadan ötişi lozim.

5.8.2. Tölov xizmatlari foydalanuvçisini röyxatdan ötkaziş yakunlanganligi Tölov xizmatlari foydalanuvçisining röyxatdan ötiş arizasida u körsatgan elektron poçta manzili (e-mail)/mobil telefoniga tegişli xabar kelişi bilan tasdiqlanadi.

5.8.3. Tölov xizmatlari foydalanuvçisi röyxatdan ötiş tartib-taomillarini bajargandan söng Tizim Tizim iştirokçisi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisiga elektron hamyon oçadi va elektron hamyonga noyob identifikatsiya raqamini beradi. Tizim iştirokçisi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisi öz elektron hamyonini Tizim veb-sayti yoki Operator tomonidan tarqatiladigan mijoz ilovalari orqali boşqaradi.

5.8.4. Tizimda röyxatdan ötgandan söng Tölov xizmatlari foydalanuvçisi – Tizim iştirokçisi Operatorning internet-resursi orqali Ofertaning şartlari hamda uşbu Qoidalarning 5.2.2-

Hujjat «CLICK» AJ mulki hisoblanadi.
Hujjatni ruxsatsiz köpaytiriş va tarqatiş taqiqlanadi hamda ÖzR qonunçiligiga muvofiq ta’qib qilinadi.

bandi 5.2.2.1-kiçik bandiga muvofiq Tizimda körsatiladigan xizmatlardan foydalaniş imkoniyatiga ega böladi.

5.8.5. Tizim iştirokçisi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisi identifikatsiyadan ötgan yoki ötmaganiga qarab Tizim unga quyidagilardan biriga aylaniş imkoniyatini beradi:

– identifikatsiyadan ötmagan elektron pullar egasi (Tizim iştirokçisi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisi identifikatsiya tartib-taomilidan ötmagan);

– identifikatsiyadan ötgan elektron pullar egasi (Tizim iştirokçisi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisi identifikatsiya tartib-taomilidan ötgan).

5.8.6. Tölov xizmatlari foydalanuvçisi – Tizim iştirokçisini identifikatsiya qiliş Operator tomonidan uşbu Qoidalarning 5.17-bölimiga muvofiq ötkaziladi.

5.8.7. Tizimda Tizim iştirokçilari – Tölov xizmatlari foydalanuvçilari uçun elektron pullar bilan operatsiyalar summalari (şu jumladan Emitent va Agentdan elektron pullar sotib oliş) böyiça quyidagi çeklovlar amal qiladi, ularga köra:

– identifikatsiyadan ötgan elektron pullar egasi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisi tomonidan amalga oşiriladigan bitta operatsiyaning maksimal summasi bazaviy hisoblaş miqdorining yuz baravariga teng summadan oşmasligi lozim.

– identifikatsiyadan ötmagan elektron pullar egasi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisi tomonidan amalga oşiriladigan bitta operatsiyaning maksimal summasi bitta bazaviy hisoblaş miqdoridan oşmasligi lozim. Uşbu summa oşirilganda operatsiyani amalga oşiriş rad etilişi va elektron pullar egasini identifikatsiya qiliş zarurligi haqida xabarnoma yuborilişi lozim.

5.8.8. Identifikatsiyadan ötmagan elektron pullar egasi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisining bitta elektron qurilmasida saqlanadigan elektron pullarning maksimal summasi bazaviy hisoblaş miqdorining beş baravariga teng summadan oşmasligi lozim.

5.8.9. Tölov xizmatlari foydalanuvçisi Tizimda röyxatdan ötgandan söng uning barça tölovlari va EP bilan boşqa operatsiyalari tarixi Tizimda saqlanadi va Tizim iştirokçisi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisiga Tizimga kirgandan söng sutkasiga 24 soat davomida mavjud böladi.

5.9. Tölov xizmatlari foydalanuvçilari va Merchantlarning elektron hamyonlarini röyxatdan ötkaziş, oçiş va yopiş

5.9.1. Tölov xizmatlari foydalanuvçilarining elektron hamyonlarini oçiş.

CLICK-hamyon – Tölov xizmatlari foydalanuvçisining plastik kartasiga boğlanmagan virtual hisobvaraq bölib, uni oçişni Tölov xizmatlari foydalanuvçisi mustaqil ravişda, bevosita CLICK Tizimida uning servislaridan biri yordamida amalga oşiradi.

CLICK-hamyonni yaratişdan oldin CLICK Tizimi Tölov xizmatlari foydalanuvçisiga Ommaviy oferta bilan tanişiş va uni qabul qiliş imkoniyatini beradi.

CLICK-hamyonni yaratiş uçun tuğilgan sanani kk.oo.yyyy formatida kiritiş kifoya.

5.9.2. Merchantni röyxatdan ötkaziş.

Merchantning Tizimga qöşilişi Merchant Ommaviy oferta şartlari bilan tanişgandan va Merchant hamda Operator örtasida Özbekiston Respublikasi qonunçiligi va uşbu Qoidalar talablariga muvofiq şartnoma yozma ravişda tuzilgandan söng amalga oşiriladi.

Merchantni röyxatdan ötkaziş uçun arizalar https://merchant.click.uz/online-signup saytidagi onlayn şaklni töldiriş orqali beriladi.

Yuridik şaxsning (yetkazib beruvçining, Merchantning) elektron hamyoni Merchantni röyxatdan ötkaziş uçun ariza kelib tuşgandan söng Operator tomonidan oçiladi.

Uşbu yuridik şaxs bilan tuziladigan şartnomada pul mablağlarini keyinçalik çiqarib oliş uçun özaro hisob-kitoblarning vaqt oraliği körsatiladi.

Yuridik şaxs elektron hamyonni özining şaxsiy kabinetida (Merchant kabineti) boşqaradi.

Hujjat «CLICK» AJ mulki hisoblanadi.
Hujjatni ruxsatsiz köpaytiriş va tarqatiş taqiqlanadi hamda ÖzR qonunçiligiga muvofiq ta'qib qilinadi.

5.9.3. Pul mablağlarini qoplaş.

Pul mablağlarini qoplaş emitent elektron pullar çiqariş faoliyatini töxtatganda yoki Foydalanuvçi tomonidan Tizim interfeyslaridan birida CLICK-hamyon yopilganda mumkin. Foydalanuvçi Tizim interfeysida hamyonni yopişni boşlagandan söng, unga hamyon qoldiğini tovarlar va xizmatlar uçun tölaşga sarflaş yoki qoldiqni olib ketiş taklif etiladi.

Elektron pullar egasi elektron pullarni qoplaş töğrisida murojaat qilmagan taqdirda, uning elektron hamyondagi elektron pullari emitent tomonidan majburiy tartibda qoplanadi. Bunda emitent tomonidan:

– yakka tartibdagi tadbirkorlar va (yoki) yuridik şaxslarning elektron pullari elektron hamyondagi qoldiq summasini ularning bank hisobvaraqlariga töliq ötkaziş yöli bilan qoplanadi;

– identifikatsiyadan ötgan elektron pullar egalari – Tölov xizmatlari foydalanuvçilarining elektron pullari elektron hamyondagi qoldiq summasini bank hisobvarağiga töliq ötkaziş yöli bilan qoplanadi;

– identifikatsiyadan ötmagan elektron pullar egalari – Tölov xizmatlari foydalanuvçilarining elektron pullari elektron hamyondagi qoldiq summasini emitentning maxsus hisobvarağiga töliq ötkaziş yöli bilan qoplanadi, bu hisobvaraqda u Tölov xizmatlari foydalanuvçisi talab qilib olgunga qadar saqlanadi.

5.9.4. Pul mablağlarini oliş.

Elektron pullarni qoplaş uçun murojaat qilmagan Tölov xizmatlari foydalanuvçilarining elektron pullari emitent tomonidan majburiy qoplangandan söng, ular pul mablağlarini quyidagiça olişlari mumkin:

– identifikatsiyadan ötgan elektron pullar egasi bölgan jismoniy şaxslar – şaxsni tasdiqlovçi hujjatni taqdim etiş orqali;

– identifikatsiyadan ötmagan elektron pullar egasi bölgan jismoniy şaxslar – emitent tomonidan elektron poçta manziliga yoki mobil aloqa vositasiga oldindan yuborilgan kod axborotini taqdim etiş orqali.

Bunda emitent pul mablağlari oluvçilar röyxatini Tölov xizmatlari foydalanuvçilarining şaxsini tasdiqlovçi hujjat asosida yuritadi.

5.10. Elektron pullar çiqariş

Operator emitent tomonidan unga berilgan vakolatlar asosida EPni u uçun emissiya qilingan va hozirgi vaqtda böş qoldiqda mavjud bölgan EP summasi doirasida sotadi.

EPni emissiya qiliş uçun emitent-bankda Operator uçun çiqarilgan EPning kafili hisoblangan kafolat fondi hisobvarağı oçiladi.

EP emissiyasi Operator Emitentga sörov yuborib, bankdagi emitentning maxsus depozit hisobvarağini (22640) töldirgandan söng amalga oşiriladi. Bunda emissiya qilingan EP summasi ötkazilgan summaga teng böladi.

5.11. Elektron pullarni Tizim iştirokçilari – jismoniy şaxslarga sotiş

Bankda «CLICK» Tizimida oçiladigan jismoniy va yuridik şaxslarning barça elektron hamyonlari qoldiqlari aks ettiriladigan Maxsus hisobvaraq oçilişi nazarda tutiladi.

5.11.1. Jismoniy şaxslar tomonidan hamyonlarni töldiriş.

Elektron hamyonni bank plastik kartasi orqali töldiriş uçun Tölov xizmatlari foydalanuvçisi CLICK Tizimi interfeysi orqali pul mablağlarini kartadan hamyonga yuborişni boşlaydi, ular EPOS orqali jismoniy va yuridik şaxslarning elektron hamyonlari uçun maxsus hisobvaraqqa ötkaziladi. Operator EPni Tölov xizmatlari foydalanuvçisining hamyoniga özining böş qoldiğidan sotadi.

Hujjat «CLICK» AJ mulki hisoblanadi.
Hujjatni ruxsatsiz köpaytiriş va tarqatiş taqiqlanadi hamda ÖzR qonunçiligiga muvofiq ta’qib qilinadi.

5.12. Tizim iştirokçisi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisini identifikatsiya qiliş

Elektron pullar egasini identifikatsiya qiliş elektron pullar emitenti va (yoki) elektron pullar tizimi operatori tomonidan elektron pullar egasining şaxsan iştirokida va u öz şaxsini tasdiqlovçi hujjatni taqdim etganda yoki qonunçilik talablariga zid bölmagan boşqa usulda amalga oşiriladi.

5.13. EPdan foydalangan holda tölovlar va boşqa operatsiyalarni amalga oşiriş

5.13.1. Tölov xizmatlari foydalanuvçilarining hamyonlari örtasidagi ötkazmalar.

CLICK Tizimida Operator uçun Tizim orqali ötadigan barça tölovlar böyiça komissiyani qabul qiliş uçun elektron hamyon oçiladi.

Ötkazma operatsiyasini amalga oşiriş uçun jönatuvçining hamyonidan EP summasi va amalga oşirilgan operatsiya uçun komissiya yeçib olinadi, bunda oluvçining elektron hamyoniga ötkazilgan EP summasi ötkaziladi, komissiya foizi esa tegişli ravişda Operatorning hamyoniga ötkaziladi.

Bunda bankda moliyaviy operatsiyalar amalga oşirilmaydi, çunki barça operatsiyalar CLICK Tizimida EP bilan amalga oşiriladi.

5.14. Elektron pullarni Tizimda qoplaş

Operator talab qilinmagan pul mablağlari qoldiğini qoplaş töğrisida qaror qabul qilgan taqdirda, emitent pul mablağlarini maxsus depozit hisobvarağidan Operatorning hisob-kitob hisobvarağiga qaytaradi. Bunda CLICK Tizimida emissiya qilingan EPning umumiy hajmi summasi va böş qoldiq kamayadi.

EP töliq qoplangan taqdirda emissiya qilingan EPning töliq summasi emitent-bankka qaytariladi.

5.15. Elektron pullar hisobi va Emitentning tartibga soluvçi organlar oldidagi hisoboti

5.15.1. EP hisobi böyiça barça operatsiyalarni Emitent Özbekiston Respublikasining tölovlar va tölov tizimlari töğrisidagi qonunçiligi talablariga, Elektron pullarning çiqarilişi va muomalada bölişi qoidalariga hamda Bankning içki normativ hujjatlariga muvofiq aks ettiradi.

5.15.2. Elektron pullar hisobi emitent-bank tomonidan maxsus depozit hisobvarağida yuritiladi. Hisobvaraq qoldiği joriy sanaga muomalada bölgan elektron pullar summasidan kam bölmasligi lozim.

5.15.3. Bank özi çiqargan EP summasi EP çiqarişni amalga oşiriş uçun jismoniy va yuridik şaxslardan olingan, 22640-majburiyatlar hisobvarağiga ötkazilgan naqd yoki naqd pulsiz pul summasidan oşib ketmasligi ustidan nazoratni ta’minlaydi.

5.16. Operatorning Merchantlar bilan özaro hamkorligi

5.16.1. Merchantning Operator bilan özaro hamkorligi Operator va Merchant örtasida tuzilgan şartnoma hamda uşbu Qoidalar asosida amalga oşiriladi.

5.16.2. Merchantlarga elektron pullar sotib oliş/elektron hamyonlarni töldiriş taqiqlanadi. Merchantlar özlarining oçilgan elektron hamyonlariga elektron pullarni Tizim iştirokçilari – Tölov xizmatlari foydalanuvçilaridan faqat sotilgan tovarlar/körsatilgan xizmatlar, bajarilgan işlar uçun oladilar.

5.16.3. Operator öz ixtiyoriga köra Merchantdan tölovni amalga oşirgan Tölov xizmatlari foydalanuvçisi – Tizim iştirokçisiga tovarlar yoki xizmatlar yetkazib berilganligi/tovar topşirilganligi töğrisida tasdiq talab qilişga haqli.

Hujjat «CLICK» AJ mulki hisoblanadi.
Hujjatni ruxsatsiz köpaytiriş va tarqatiş taqiqlanadi hamda ÖzR qonunçiligiga muvofiq ta’qib qilinadi.

5.16.4. Tizimda tovarlar, işlar, xizmatlarni sotişda EP olgan Merchantda qabul qilingan tölov summasida Emitentga nisbatan pul talabi huquqi yuzaga keladi.

5.16.5. Emitent Merchantlarning elektron pullarini Merchant va Operator örtasida tuzilgan şartnoma şartlariga muvofiq naqd pulsiz tölov orqali qoplaydi.

5.16.6. Merchant olgan elektron pullar Özbekiston Respublikasi qonunçiligi va uşbu Qoidalarda nazarda tutilgan asoslarda Tölov xizmatlari foydalanuvçisi – tölovçiga qaytarilganda qoplanmaydi.

5.16.7. Emitent va Operator Tizim iştirokçisi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisining Merchant bilan bitimining qonuniyligi, uning şartlari, şuningdek bitim tuzilişi, bajarilişi va bekor qilinişining fakti va oqibatlari, şu jumladan bunday bitim böyiça tölovni qaytarişning asosliligi, şuningdek Merchant tomonidan pulning Tizim iştirokçisi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisiga qaytarilmaganligi yoki öz vaqtida qaytarilmaganligi uçun javobgar bölmaydi. Şuningdek Emitent va Operator Tizim iştirokçisi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisining Merchantlar tomonidan bitim böyiça öz majburiyatlari, şu jumladan tovarlarni topşiriş, xizmatlar körsatiş yoki işlarni bajariş majburiyatlari bajarilmaganligi (lozim darajada bajarilmaganligi)ga oid da’volarini körib çiqmaydi.

5.17. Nizolarni hal etiş tartibi

5.17.1. Agar EP Egasining tegişli körsatmasini bajariş Özbekiston Respublikasi qonunçiligi talablari, uşbu Qoidalar talablari va Tizim iştirokçilari bilan tuzilgan şartnomalarning buzilişiga olib kelsa, Operator va/yoki Emitent elektron pullar bilan operatsiyalarni ötkazişni töxtatib turadi yoki rad etadi.

5.17.2. EP bilan operatsiyalarni ötkazişni töxtatib turiş/rad etiş haqida Operator EP Egasiga rad etiş sababini körsatgan holda elektron xabar yuboriş orqali zudlik bilan xabar beradi.

5.17.3. Yuzaga keladigan barça masalalar böyiça Tizim iştirokçisi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisi Operatorning internet-resursi sahifalarida joylaştirilgan aloqa telefonlari va elektron manzillar orqali Operatorning qöllab-quvvatlaş xizmatiga yoki Emitentga murojaat qilişi mumkin.

5.17.4. Tizim iştirokçilari örtasidagi Tizimda iştirok etiş hamda EPdan foydalangan holda tölov va boşqa operatsiyalarni amalga oşiriş bilan boğliq da’volar Özbekiston Respublikasi qonunçiligi, uşbu Qoidalar va ular örtasida tuzilgan şartnomalarda belgilangan tartibda hal etiladi. Tizim iştirokçilarining da’volari Operatorga yoki Emitentga ularning Iştirokçilar oldidagi majburiyatlariga muvofiq yuboriladi.

5.17.5. Iştirokçilarning Tizimda iştirok etişi va elektron pullar bilan operatsiyalarni amalga oşirişi bilan boğliq da’volarini Operator yoki Emitent tomonidan körib çiqiş tartibi:

5.17.5.1.Iştirokçilardan da’volarni qabul qiliş Operator/Emitent tomonidan quyidagi usullarda amalga oşiriladi:

– Operator yoki Emitent ofisiga şaxsan murojaat qilinganda;

– da’vo yozma şaklda poçta jönatmasi yoki elektron xabar orqali yuborilganda.

5.17.5.2.Da’vo quyidagi axborotni öz içiga olişi lozim:

– Tölov xizmatlari foydalanuvçisi uçun – ismi, familiyasi, otasining ismi, IIN, elektron hamyon raqami, elektron manzili, javob yuborilişi lozim bölgan yaşaş joyi böyiça röyxatdan ötgan manzili (yoki yaşaş joyi manzili bilan mos kelmasa, vaqtinça turgan joyi böyiça röyxatdan ötgan manzili), Tölov xizmatlari foydalanuvçisining imzosi (agar da’vo yozma şaklda yuborilgan bölsa), aloqa telefoni;

– yuridik şaxs uçun – nomi, STIR, poçta manzili, elektron hamyon raqami, şuningdek yozişmalar yuboriş uçun poçta manzili, rahbarning yoki işonçnoma böyiça şaxsning imzosi (agar

Hujjat «CLICK» AJ mulki hisoblanadi.
Hujjatni ruxsatsiz köpaytiriş va tarqatiş taqiqlanadi hamda ÖzR qonunçiligiga muvofiq ta’qib qilinadi.

da’vo
yozma şaklda yuborilgan bölsa), aloqa telefoni;

– tuzilgan sanasi va joyi; murojaatning predmeti, mohiyati, uni tasdiqlovçi holatlar.

5.17.5.3. Ariza beruvçi da’voga özi da’vo matnida havola qilgan zarur hujjatlarning (tölov topşiriqnomalari, köçirmalar, kvitansiyalar, çeklar va boşqalar) nusxalarini ilova qiladi.

5.17.5.4. Iştirokçi özining elektron hamyoni böyiça amalga oşirilgan çiqim operatsiyalariga rozi bölmagan taqdirda, da’volar Operatorning internet-resursi orqali elektron interaktiv ariza yuboriş yöli bilan qabul qilinadi. Operator arizani olgan sanadan boşlab 10 (ön) taqvim kunidan köp bölmagan muddat ötgan operatsiyalar böyiça vaziyatlarni körib çiqadi.

5.17.5.5. Operator yoki Emitent da’voni körib çiqadi va Iştirokçining tegişli da’vosini olgan kundan boşlab 15 (ön beş) taqvim kuni içida da’voga javobni ariza beruvçi körsatgan manzilga/elektron manzilga yuboradi.

5.17.5.6. Agar da’vo asosli deb topilgan bölsa, aniqlangan kamçiliklar Operator/Emitent tomonidan (u yoki bu kamçilik kimning aybi bilan yuz berganiga qarab) oqilona muddatda bartaraf etilişi lozim.

5.17.6. Munozarali masalalarni xolisona körib çiqiş uçun Tizim iştirokçilari özaro kelişuv asosida Operator iştirokida ekspert komissiyalarini tuzişlari mumkin. Ekspert komissiyalari muayyan nizoni körib çiqiş uçun tuziladi.

5.17.7. Ekspert komissiyasi majlisining vaqti haqida Iştirokçilar – manfaatdor tomonlar Operator tomonidan öz vaqtida (kamida 2 (ikki) iş kuni oldin) xabardor qilinişi lozim.

5.17.8. Komissiya işining natijalari ekspert xulosasi şaklida rasmiylaştiriladi. Ekspert xulosasida qabul qilingan qarorni Tomonlar tomonidan bajariş muddatlari, komissiya qarorini ijro etiş bilan boğliq majburiyatlarning taqsimlanişi (zarur bölganda – Tomonlar örtasida moddiy xarajatlarning taqsimlaniş tartibi) körsatilişi lozim.

5.17.9. Da’voni körib çiqişni rad etiş töğrisidagi javob olinganda yoki nizoni suddan taşqari tartibda hal etiş imkoni bölmaganda Iştirokçi özining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qiliş uçun sudga murojaat qilişga haqli.

5.18. Tizimning uzluksiz işlaşi va xavfsizligini ta’minlaş

5.18.1. Operator «CLICK» elektron pullar tizimining 24/7/365 rejimida (kuniga 24 soat, haftasiga 7 kun, yiliga 365 kun) uzluksiz faoliyat yuritişini ta’minlaydi, profilaktika işlari ötkaziladigan vaqt bundan mustasno.

5.18.2. Operator EP Tizimida faoliyatni amalga oşiriş çoğida unga ma’lum bölib qolişi mumkin bölgan axborot xavfsizligini ta’minlaş vositalari va usullari töğrisidagi axborotni, şaxsga doir ma’lumotlarni hamda Özbekiston Respublikasi qonunçiligiga muvofiq majburiy himoyalanişi lozim bölgan boşqa axborotni himoya qilişni ta’minlaydi.

5.18.3. Tizim iştirokçilari Tizimda almaşiladigan yoki Tizimdan foydalaniş munosabati bilan Tizim iştirokçilari foydalanişi mumkin bölgan axborot va hujjatlarning xavfsizligini ta’minlaş va himoya qiliş uçun, şuningdek firibgarlikni aniqlaş (oldini oliş) hamda jinoiy yöl bilan olingan daromadlarni legallaştirişga va terrorizmni moliyalaştirişga qarşi kuraşiş maqsadida barça zarur çoralarni köriş majburiyatini oladilar.

5.18.4. Tizimda qöllaniladigan dasturiy-texnik vositalarga ruxsatsiz kirişning oldini oliş vositalari va çoralari, şu jumladan dasturiy-texnik himoya vositalari Özbekiston Respublikasi qonunçiligida belgilangan talablarga muvofiq axborotni himoya qiliş darajasini va uning maxfiyligini saqlaşni ta’minlaşi lozim. Tizim iştirokçilari maxfiylikni saqlaş, ruxsatsiz foydalanişning oldini oliş va identifikatsiya ma’lumotlarini uçinçi şaxslarning ruxsatsiz kirişidan himoya qiliş böyiça barça zarur çoralarni köriş majburiyatini oladilar.

Hujjat «CLICK» AJ mulki hisoblanadi.
Hujjatni ruxsatsiz köpaytiriş va tarqatiş taqiqlanadi hamda ÖzR qonunçiligiga muvofiq ta’qib qilinadi.

5.18.5. Iştirokçi avtorizatsiya ma'lumotlarini yöqotgan taqdirda Operator Iştirokçiga Iştirokçi tomonidan Operatorning internet-resursida Operator belgilagan şakl böyiça tegişli ariza beriş orqali elektron hamyonga kirişni tiklaş imkoniyatini beradi. Bunda identifikatsiyadan ötmagan Elektron pullar egasi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisi elektron hamyonga kirişni tiklaş uçun Operator belgilagan şakl böyiça tegişli arizani Operatorning istalgan ofisida topşiradi, şuningdek kirişi tiklanayotgan elektron hamyonga egalik qiliş va undan foydalaniş dalillarini (masalan, hamyondan foydalangan holda sönggi operatsiyalar röyxatini) taqdim etadi, bunda körsatilgan dalillarning yetarliligi Operatorning yagona ixtiyoriga köra belgilanadi.

5.19. Maxfiylik

5.19.1. Tizim iştirokçilari uşbu Qoidalarga qöşiliş munosabati bilan özlariga ma'lum bölib qolgan Tizimning boşqa iştirokçilari töğrisidagi ommaga oçiq bölmagan ma'lumotlarga nisbatan maxfiylikka rioya etiş majburiyatini oladilar, quyidagi hollar bundan mustasno:

– axborot uning Egasi hisoblangan Tizim iştirokçisining talabiga binoan yoki ruxsati bilan oşkor etilgan bölsa;

– axborot uşbu Qoidalarda nazarda tutilgan majburiyatlarni bajariş uçun zarur hajmda uçinçi şaxslarga taqdim etilişi lozim bölsa;

– Özbekiston Respublikasi qonunçiligida nazarda tutilgan asoslarda axborotning oşkor etilişi talab qilinsa.

5.19.2. Quyidagilar Tizim iştirokçilarining maxfiyligi va xavfsizligini buziş hisoblanmaydi:

– maxfiy axborotni uşbu Qoidalarni va Tizim iştirokçilarining boşqa kelişuvlarini bajariş maqsadida uçinçi tomonga taqdim etiş;

– maxfiy axborotni huquqni muhofaza qiluvçi va boşqa vakolatli davlat organlarining qonuniy talabiga binoan, şuningdek Özbekiston Respublikasining amaldagi qonunçiligida nazarda tutilgan boşqa hollarda taqdim etiş.

5.20. Elektron pullar Egasini autentifikatsiya qiliş

5.20.1. Elektron hamyonga kiriş va elektron hamyondan foydalangan holda har qanday operatsiyalarni amalga oşiriş faqat EP Egasi autentifikatsiya qilingandan söng mumkin.

5.20.2. EP Egasini elektron hamyonga kirişda autentifikatsiya qiliş Tizimning dasturiy ta'minoti tomonidan EP Egasining avtorizatsiya ma'lumotlaridan (login, parol, uyali telefon raqami va zarur bölganda maxsus SMS-xabarlar) foydalangan holda amalga oşiriladi.

5.21. Uşbu Qoidalarga özgartirişlar kiritiş tartibi

5.21.1. Operator Emitent bilan birgalikda (kelişuv asosida) uşbu Qoidalarni va Tizim doirasida xizmatlardan foydalaniş tariflarini özgartirişga va/yoki töldirişga haqli, bunda qabul qilingan özgartirişlar Tizimning internet-resursida majburiy tartibda e'lon qilinadi.

5.21.2. Qoidalarga özgartiriş va/yoki qöşimçalar Qoidalarning yangi tahririni tasdiqlaş yöli bilan ham, Qoidalarga özgartiriş va/yoki qöşimçalar matnini tayyorlaş yöli bilan ham kiritilişi mumkin.

5.21.3. Qoidalarga kiritiladigan özgartiriş va/yoki qöşimçalarning kuçga kiriş sanasi Operator tomonidan Emitent bilan kelişilgan holda (kelişuv asosida) belgilanadi, lekin ularni amalga kiritiş sanasidan kamida ön beş iş kuni oldin.

5.21.4. Operator Iştirokçilarni Qoidalarga kiritilgan özgartiriş va/yoki qöşimçalar haqida tegişli axborotni amaldagi qonunçilikda belgilangan muddatda Operatorning internet-resursida joylaştiriş orqali xabardor qiladi.

Hujjat «CLICK» AJ mulki hisoblanadi.
Hujjatni ruxsatsiz köpaytiriş va tarqatiş taqiqlanadi hamda ÖzR qonunçiligiga muvofiq ta'qib qilinadi.

5.21.5. Iştirokçi Qoidalarga kiritilgan özgartiriş va/yoki qöşimçalar yoki tariflarga rozi bölmagan taqdirda, Iştirokçi özida mavjud elektron pullarni qoplab va Tizimdagi elektron hamyonni yopib, Tizimdan keyingi foydalanişdan voz keçişga haqli.

5.21.6. Kuçga kirgan Qoidalar Operatorning internet-resursida joylaştiriladi. Qoidalarga keyinçalik özgartiriş va/yoki qöşimçalar kiritiş Qoidalarning uşbu bölimida belgilangan tartibda amalga oşiriladi.

5.21.7. Qoidalarga kiritilgan har qanday özgartiriş va/yoki qöşimçalar kuçga kirgandan söng Tizimdan keyingi foydalaniş Iştirokçilarning bunday özgartiriş va/yoki qöşimçalarga roziligini bildiradi.

5.22. Elektron hamyonlarni bloklaş tartibi

5.22.1. EP Egalarining elektron hamyonlarini Emitent va Operator bloklaşi mumkin. Elektron hamyonni bloklaş quyidagi hollarda amalga oşiriladi:

a) elektron pullar egasidan elektron hamyon yöqolgani, öğirlangani yoki undan ruxsatsiz foydalanilgani haqida xabarnoma olinganda;

b) elektron pullar egasi elektron pullarni çiqariş, ulardan foydalaniş va ularni qoplaş töğrisidagi kelişuv şartlarini buzganda;

d) vakolatli organlar tomonidan elektron pullar egasining elektron hamyonidagi elektron pullarga çeklov qöyilganda;

e) şartnomada nazarda tutilgan boşqa asoslarda.

Elektron hamyonning bloklanişiga sabab bölgan omillar töliq bartaraf etilişi bilan elektron hamyon qayta faollaştiriladi (faol rejimga ötkaziladi).

5.22.2. Operator emitentga elektron pullar egalari tomonidan amalga oşirilgan operatsiyalar va bitimlar töğrisidagi axborotni real vaqt rejimida (onlayn rejimda) oliş imkoniyatini beradi.

5.22.3. Elektron hamyon bloklangan hollarda emitent va operatorning elektron pullar egasi oldidagi elektron hamyon bloklanguniga qadar yuzaga kelgan majburiyatlari töliq bajarilişi lozim.

5.23. Elektron xabarlar almaşinuvi

5.23.1. Emitent, Operator, Agentlar va Merchantlar örtasida elektron xabarlar almaşinuvi Tizimda Operator belgilagan axborot uzatiş formatlari böyiça amalga oşiriladi. Tizimda elektron xabarlar almaşinuvi tartibi Operator tomonidan belgilanadi.

5.23.2. Operator elektron xabarlarni autentifikatsiya qiliş tartibini işlab çiqadi va unga rioya etilişini nazorat qiladi.

5.23.3. Elektron xabarlar davlat va/yoki rus tillarida tuziladi. Elektron xabarlarni tuzişda boşqa tillardan foydalaniş imkoniyati Operator tomonidan belgilanadi.

5.23.4. Elektron xabarlarni şakllantiriş va uzatişda Tizim iştirokçilari Tizim iştirokçilari örtasida tuzilgan şartnomalarda belgilangan ruxsatsiz tölovlardan himoya qiliş böyiça harakatlar tartibiga rioya etadilar.

5.23.5. Emitent bilan Operator yoki Agent örtasida EP bilan operatsiya amalga oşirgan Tizim iştirokçisi – Tölov xizmatlari foydalanuvçisiga nisbatan ma’lumotlar va/yoki hujjatlar paketini yuboriş qismida elektron xabarlar almaşinuvi ajratilgan himoyalangan elektron aloqa kanali orqali amalga oşiriladi.

5.23.6. Emitent, Operator va Agentlar yuborilgan va qabul qilingan elektron xabarlarning kamida beş yil davomida saqlanişini ta’minlaydilar.

5.24. Elektron hamyonni yopiş tartibi

5.24.1. Emitent elektron hamyonlarni yopmaydi. Bu funksiya faqat Operatorga tegişli.

Hujjat «CLICK» AJ mulki hisoblanadi.
Hujjatni ruxsatsiz köpaytiriş va tarqatiş taqiqlanadi hamda ÖzR qonunçiligiga muvofiq ta’qib qilinadi.

5.24.2. Elektron hamyonni yopiş Operator tomonidan Elektron hamyon Egasining elektron hamyon identifikatsiya kodi va Tizimning şaxsiy kabinetiga kiriş uçun parol körsatilgan arizasi asosida yoki Emitentning talabiga binoan amalga oşiriladi.

5.24.3. Operator tomonidan elektron hamyonni yopiş faqat unda elektron pullar mavjud bölmaganda mumkin.

5.24.4. Uşbu Bölimning şartlari Emitent tomonidan elektron pullarni Özbekiston Respublikasi qonunçiligida belgilangan tartibda majburiy qoplaş hollariga taalluqli emas.

5.25. Qöşimça şartlar

5.25.1. Tizim barça Tizim iştirokçilari uçun sutkasiga 24 soat mavjud.

5.25.2. Operator Emitentga Emitent tomonidan çiqarilgan elektron pullarni çiqariş, ulardan foydalaniş va ularni qoplaş böyiça zarur axborotni ular örtasida tuzilgan şartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda taqdim etadi.

5.25.3. Tizim iştirokçilari elektron hamyonlarda mavjud EP qoldiğiga foizlar hisoblanmasligini tuşunadilar.

5.25.4. Tizim iştirokçilari quyidagi majburiyatlarni öz zimmalariga oladilar:

– Tizimning tölov servisi orqali noqonuniy moliyaviy operatsiyalarni, noqonuniy savdoni, jinoiy yöl bilan olingan daromadlarni legallaştiriş (yuviş) va terrorizm/ekstremizmni moliyalaştiriş operatsiyalarini, şuningdek Özbekiston Respublikasi qonunçiligida belgilangan talablarni buzgan holda boşqa har qanday operatsiyalarni amalga oşirmaslik;

– noqonuniy savdo, noqonuniy moliyaviy operatsiyalar, jinoiy yöl bilan olingan daromadlarni legallaştiriş (yuviş) va terrorizm/ekstremizmni moliyalaştirişga qaratilgan operatsiyalarni amalga oşirişga urinişlarning oldini oliş;

– EP Egasi Tizimning tölov servisidan noqonuniy foyda olişga yoki daromadni yaşirişga qaratilgan operatsiyalarni amalga oşiriş uçun foydalanişga haqli emas. EP Egasiga röyxatdan ötmasdan yoki röyxatdan ötiş qoidalarini buzgan holda yoxud litsenziya talablarini buzgan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oşiriş uçun jinoiy va ma’muriy javobgarlik haqida ma’lum.

5.25.5. Uşbu Qoidalar bilan tartibga solinmagan masalalar Özbekiston Respublikasining amaldagi qonunçiligida belgilangan tartibda hal etiladi.

Hujjat «CLICK» AJ mulki hisoblanadi.
Hujjatni ruxsatsiz köpaytiriş va tarqatiş taqiqlanadi hamda ÖzR qonunçiligiga muvofiq ta’qib qilinadi.